

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATI TILINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

*Ravshanova Yulduzxon Vaxobjon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Erbutayeva Shalola Utkirovna,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
ravshanovayulduz50@gmail.com*

Annotatsiya. Erkin Vohidovning har bir she'rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas psixologiyasi, millatning monumental qiyofasi to'la aks etadi. Shoир she'rlarida ilgari surayotgan g'oyani o'quvchiga majbur qilib tushuntirmaydi, satrlar zimmasiga og'ir yuk ortmaydi. Tadqiqot davomida shoирning poetik uslubi, undagi ijtimoiy-tabaqaviy, hududiy-dialektal, madaniyma'naviy qatlamlarga oid til unsurlarining qo'llanish holatlari chuqur tahlil etiladi. Ayniqsa, Erkin Vohidovning xalqona ifodalar, maqollar, arxaizmlar, sheva unsurlari va zamonaviy adabiy til elementlarini uyg'unlashtirishdagi mahorati ijtimoiy kontekstda yoritiladi. Ishning maqsadi – shoир ijodidagi tilning ijtimoiy tabiatini, jamiyatdagi turli guruqlar bilan aloqadorlik jihatlarini va badiiy matn orqali ifodalangan sotsiolingvistik tamoyillarni ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar. Erkin Vohidov, sotsiolingvistika, she'riy til, xalqona iboralar, dialektal birliklar, badiiy uslub, til va jamiyat, poetik kommunikatsiya.

ERKIN VOHIDOV'UN ŞİİRİNİN DİLİ SOSYOLİNGÜİSTİK ANALİZ

*Ravshanova Yulduzxon Vaxobjon kizi,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü'nde öğrencisi
Erbutayeva Şalola Utkirovna,*

Bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı bölümü kademli öğretim görevlisi

Özet. Erkin Vohidov'un her şairi, dönemin canlı manzarasını, halkın ölümsüz psikolojisini ve milletin anıtsal kimliğini yansıtır. Şair, iletmek istediği düşünceyi okuyucuya zorla dayatmaz; dizeler ağır bir anlam yükü taşımadan doğal bir şekilde mesajı ileter. Bu çalışmada şairin şiirsel üslubu, eserlerinde yer alan toplumsal sınıfısal, bölgesel-dialektik ve kültürel-manevi katmanlara ait dil unsurlarının kullanımı derinlemesine analiz edilmektedir. Özellikle Vohidov'un halk deyişleri, atasözleri, arkaizmler, ağız özellikleri ve modern edebi dil unsurlarını ustalıkla birleştirme becerisi toplumsal bağlamda ele alınmaktadır. Bu çalışmanın amacı, şairin eserlerindeki dilin toplumsal doğasını, toplumun farklı kesimleriyle ilişkisini ve edebi metinlerde yansıtılan sosyodilbilimsel ilkeleri ortaya koymaktır.

Anahtar kelimeler. Erkin Vohidov, sosyodilbilim, şiir dili, halk deyişleri, dialekt unsurlar, edebi üslup, dil ve toplum, şiirsel iletişim.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКА ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

*Равшанова Юлдузхон Вахобжон кызы,
студентка 3 курса узбекско-финского педагогического института
Эрбутаева Шалола Уткировна,
научный руководитель, старший преподаватель кафедры
узбекского языка и литературы*

Аннотация. Каждое стихотворение Эркина Вохидова ярко отражает дух времени, бессмертную психологию народа и монументальный облик нации. Поэт не навязывает читателю идею, которую хочет донести, - строки не несут на себе тяжёлого

назидательного груза, а наоборот, передают смысл тонко и естественно. В данном исследовании проводится глубокий анализ поэтического стиля поэта, в частности, использования языковых элементов, связанных с социально-классовыми, регионально-диалектными и культурно-духовными слоями. Особое внимание уделяется мастерству Вахидова в гармоничном сочетании народных выражений, пословиц, архаизмов, диалектных элементов и компонентов современного литературного языка в социальном контексте. Цель работы – раскрыть социальную природу языка в творчестве поэта, его связь с различными группами общества и социолингвистические принципы, выраженные через художественный текст.

Ключевые слова. Эркин Вахидов, социолингвистика, поэтический язык, народные выражения, диалектные единицы, художественный стиль, язык и общество, поэтическая коммуникация.

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF THE LANGUAGE OF ERKIN VOKHIDOV'S POETRY

Ravshanova Yulduzkhon Vahobjon kizi

3rd year student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Erbutayeva Shalola Utkirovna,

scientific supervisor, senior lecturer of the Department of
uzbek language and literature

Abstract. Each poem by Erkin Vohidov vividly reflects the spirit of the era, the immortal psychology of the people, and the monumental image of the nation. The poet does not forcefully impose the ideas he conveys upon the reader; instead, the lines carry meaning with subtlety and grace. This study provides an in-depth analysis of the poet's poetic style, focusing on the use of linguistic elements related to social-class distinctions, regional dialects, and cultural-spiritual layers. Particular attention is given to Vohidov's skill in harmonizing folk expressions, proverbs, archaisms, dialectal features, and elements of modern literary language within a social context. The aim of this research is to reveal the social nature of language in the poet's work, its connection to various social groups, and the sociolinguistic principles conveyed through literary texts.

Keywords. Erkin Vohidov, sociolinguistics, poetic language, folk expressions, dialectal units, literary style, language and society, poetic communication.

Erkin Vohidov asarlarini o'qiganingizda, u yerda insoniy iztirob, qalbning eng chuqur og'riqlarini his qilgandek bo'lasiz. Shoiring she'riy satrlarini mutolaa qilganingizda, go'yoki sehrli, rivoyatlarga boy bir olamga tushib qolgandek holatga tushasiz. Uning til uslubi cheklanmagan, erkin va ilhom bilan boyitilgan. U har bir leksik birlikni o'z o'rnida, badiiy niyatiga mos holda qo'llagan, takroriylikdan tiyilgan, har doim yangilik izlagan ijodkordir. Ushbu tadqiqotda Erkin Vohidovning poetik nutqidagi til vositalari sotsiolingvistik mezonlar asosida tahlil qilinadi. Ya'ni, shoiring til uslubidagi ijtimoiy guruqlar bilan bog'liq xususiyatlar, regional (hududiy) fon, yosh, jins, kasb singari omillar ta'sirida yuzaga kelgan til birliklari, milliy o'zlikni ifodalovchi frazeologik birliklar, va boshqa badiiy jihatlar o'rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, til va jamiyat o'rtaсидаги узбек муносабатни адабиёй матн асосида тahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar uchun ham ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Erkin Vohidov ijodining eng asosiy belgilardan biri shundaki, har bir so'zda uning ma'no zamin, ya'ni ichki shakli butunligicha saqlanib qolgan holda she'riylik mohiyati namoyon bo'ladi. Aksincha, agar shu ichki mazmun ramziylikdan xoli bo'lsa yoki yo'qolsa, matn prozaik, ya'ni nasriy tusga ega bo'la boshlaydi. Shoир she'riyat va nasr o'rtaсидаги chegara, bir tomondan – san'atning badiiy ifoda shakli, ikkinchi tomondan esa – ruhiyat va ma'naviyatni tushunish yo'li ekanligini ilg'agan. Xuddi boshqa san'at turlarida bo'lgani kabi, she'riy tilda ham obraz, timsol va

ramzlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu bois, Erkin Vohidov badiiy tasvirning asosiy unsurlarini – voqealar ketma-ketligi, timsollar va syujetdagi personajlarni ifoda qilishda obrazlarga murojaat qiladi. Aynan shu obrazlar vositasida hosil bo‘lgan tuyg‘ular va fikrlar asarning asosiy mazmuni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tafakkuri, ruhiyati, madaniyati va tarixiy xotirasining aksidir. Har bir adibning badiiy tili uning individual dunyoqarashi, estetik pozitsiyasi va jamiyat bilan bo‘lgan ruhiy aloqalarini ifoda etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, she’riyat tilida badiiy-estetik maqsadlar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy muhit, milliy o‘zlik, xalqona tafakkur ham o‘z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Erkin Vohidovning poetik merosi o‘zbek adabiy tilining sotsiolingvistik qatlamlarini o‘rganish uchun noyob manba bo‘lib xizmat qiladi. Erkin Vohidov – o‘zbek poeziyasining yorqin siymolaridan biri sifatida, she’riyatda nafaqat ohangdorlik va badiiylikni, balki xalq tilining nozik jihatlarini, ijtimoiy qatlamlar orasidagi lingvistik tafovutlarni ham ustalik bilan ifodalagan ijodkordir. Uning she’rlarida xalqona iboralar, maqollar, arxaik birliklar, sheva va lahja unsurlari, zamonaviy tilning boy ifoda vositalari uyg‘un holda qo‘llaniladi. Bularning barchasi shoirning jamiyat bilan qanday tildan foydalanib “muloqot” qilganini, u til orqali qanday ijtimoiy ma’lumotlar, ruhiy holat va milliy ongi uzatganini ko‘rsatadi.

*El-ustozim, men esa tolib,
So ‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim.
Mayli, umrim abadiy emas,
Mayli, yashay faqat bir nafas,
Lekin meni oyga qilib teng,
Shu ’lalardan yasab koshona.
Quyosh sari uzatgan xalqning
Boshi uzra bo ‘lay parvona.
El-ustozim, men esa tolib,
So ‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim.
Mayli, umrim abadiy emas,
Mayli, yashay faqat bir nafas,
Lekin meni oyga qilib teng,
Shu ’lalardan yasab koshona.
Quyosh sari uzatgan xalqning
Boshi uzra bo ‘lay parvona.*

Erkin Vohidovning quyidagi ikki she’rini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilganda, ularda tilning jamiyat bilan bog‘liq funksiyalari, xalq tilining poetik nutqqa qanday singdirilganligi va shoirning ijtimoiy ongi ifodalashdagi mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchi she’rda shoir o‘zini “tolib”, ya’ni o‘rganuvchi sifatida tasvirlab, xalqni esa “ustoz” deb biladi. Bu ifoda orqali shoir til vositasida xalq bilan o‘zaro ruhiy, ma’naviy va madaniy aloqani ta’minlaydi. Shoirning “So‘z durlarin termoqdir ishim, Odamlarning o‘zidan olib, Odamlarga bermoqdir ishim” degan satrlarida tilning jamiyatdagi aylanish jarayoni, ya’ni so‘zlarning xalqdan chiqqan holda yana xalqning o‘ziga qaytishi aks ettiriladi. Bu holat sotsiolingvistik nuqtai nazardan tildagi sirkulyatsiya, ya’ni so‘zlar aylanishi, ma’naviy merosning og‘zaki tilda saqlanishi va ijodkor tomonidan estetik darajada ifoda etilishiga ishora qiladi. Demak, til shoirga jamiyat bilan muloqot o‘rnatish, xalq ruhiyatini aks ettirish va uni poetik vosita orqali qayta ifoda etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinci she’rda esa shoir o‘z umrining muvaqqatligini tan olgan holda, uni xalq bilan bog‘liq ma’naviy ramzlar orqali abadiylashtirishga intiladi. Shoir o‘zini “oyga teng”, xalqni esa “quyosh sari uzalgan” deb tasvirlaydi. Bu yerda “oy”, “quyosh”, “parvona”, “koshona” kabi ramziy

obrazlar orqali xalq va shoir o'rtasidagi bog'liqlik, shoirning fidoyiligi, milliy o'zlik va ijtimoiy sadoqat tasvirlanadi. Bunday ramzlar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki sotsiolingvistik jihatdan qaralganda, ularning har biri muayyan ijtimoiy qatlama, madaniy tafakkur va xalq ongida shakllangan semantik ma'noga ega bo'lgan timsollardir. Shoir bu obrazlarni xalq tilidan, xalq tafakkuridan olgan holda ularni she'riyat orqali chuqur ifodalaydi.

Har ikki she'rda ham xalqona iboralar, og'zaki nutqqa xos shakllar va milliy obrazlar poetik tilda mahorat bilan qo'llanilgan. Bu esa shoirning tilda xalq nutqiga tayanuvchi, ijtimoiy ong bilan uyg'unlashgan, zamonaviy ruhga ega she'riyat yaratganini ko'rsatadi. Erkin Vohidov xalqning ruhiyatini, orzu-armonlarini, azob-uqubatlarini, ichki dunyosini aynan til orqali ifodalagan, bu til esa sotsiolingvistik nuqtai nazardan ijtimoiy aloqa, madaniy uzviylik va tarixiy ongning ifodasi sifatida xizmat qilgan. Shu bois, Erkin Vohidov ijodi sotsiolingvistika uchun muhim tadqiqot obyekti bo'la oladi. Uning ijodida til faqat san'at vositasi emas, balki ijtimoiy va ma'naviy tushunchalarni ifoda etish, xalq bilan ruhiy bog'liqlikniga saqlash vositasi sifatida qaraladi. Til orqali shoir jamiyat bilan doimiy aloqada bo'lgan, xalq nutqini estetik shaklda ifodalab, uni poetik tafakkurga aylantirgan. Shu jihatdan, Erkin Vohidov she'riyati sotsiolingvistik tahlil uchun boy material bo'lib, unda tilning ijtimoiy tabiatini, xalq bilan bog'liqligini, madaniy kontekstdagi ramziy ifodasini chuqur anglash mumkin.

Erkin Vohidov hech bir she'rini shunchaki, yuzaki yozmagan. Uning har bir misrasi zamirida hayotiy haqiqatlar, insoniy tuyg'ular, jamiyatdagi dolzarb masalalar chuqur mushohada bilan aks ettirilgan. Shoir o'z asarlari orqali nafaqat badiiy go'zallikni yaratadi, balki tilni jamiyat bilan bog'lovchi vosita sifatida ishlataladi. Ayniqsa, uning she'riyatida Vatanga sadoqat, milliy g'urur, xalq ruhiyati, ona yurtdan faxrlanish va xalq bilan bir bo'lishi istagi til orqali juda nozik ifodalanadi. Bu holat sotsiolingvistik nuqtai nazardan tilda xalq ruhiyati, milliy o'zlik, tarixiy ong, ijtimoiy qatlamlar va madaniy kontekstlarning uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishini anglatadi. Shoir she'rlarida Vatan va xalq tushunchasi faqat syujet elementi emas, balki til vositasida aks etgan ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi. U Vatanga muhabbatni shunchaki hissiy tasvir sifatida emas, balki milliy ongning sotsiomadaniy ko'rinishi sifatida anglatadi. Shoirning poetik tilida og'zaki xalq ijodi, tarixiy tafakkur, urf-odat va qadriyatlar bilan yo'g'rilgan iboralar va ramzlar keng o'rin egallaydi. Masalan, "ona yurt", "xalq", "oy", "quyosh", "parvona" kabi timsollar bir vaqtning o'zida poetik obraz bo'lishi bilan birga, xalq tilida shakllangan ijtimoiy tushunchalarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Erkin Vohidovning she'rlari orqali tildagi ijtimoiy ong, jamiyat a'zolarining ruhiy holati, ijtimoiy qadriyatlar va mafkuraviy tendensiyalar sezilarli darajada ilg'anadi. U jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarni, milliy tiklanish g'oyalarini, istiqlol ruhi va kelajak sari ishonchni aynan til vositasida ifoda etadi. Shu bois, uning ijodini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilganimizda, til va jamiyat o'rtasidagi bevosita munosabat, shoir tilida xalq hayoti, tajribasi, orzulari va ideallarining o'z ifodasini topgani ko'rindi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning she'riyati – bu til orqali jamiyatni anglash, xalq bilan muloqot o'rnatish, milliy va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi. U har bir she'rda inson va jamiyat, shaxs va xalq, tildagi poetik mahorat va ijtimoiy ongni uyg'unlashtira olgan. Ana shu jihatlar uning asarlarini sotsiolingvistik tahlil nuqtayi nazaridan, ayniqsa, muhim va dolzarb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. 5 jiddlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. – betlarda: 112–145.
2. Qurbonov R. Til va jamiyat: Sotsiolingvistika assoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – betlarda: 56–70.
3. Karimov A. Zamonaviy o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – betlarda: 88–94.
4. G'aniyeva N. O'zbek poetik tafakkurining sotsiomadaniy xususiyatlari Filologiya masalalari. 2021. №1 – betlarda: 45–50.

5. Oripov A. So'z sehri va shoir mas'uliyati O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1996. – №12. – betlarda: 3–4
6. Xudoyberganova D. O'zbek tilining ijtimoiy tabiatini o'rghanish masalalari Til va adabiyot ta'limi. 2019. №3. – betlarda: 22–26
7. Jorayeva M. Erkin Vohidov ijodida poetik obraz va ramzlar Yosh olimlar tadqiqotlari to'plami. – Toshkent: TDPU, 2022. – betlarda: 34–39